

Abu Ali ibn Sino shifobaxsh kovrak turlari haqida

Samandarova Z.L.

Ferula L. turkumi vakillari Apiaceae oilasiga mansub bo'lib, ularning soni yer yuzida 170 ta turdan ortiqdir (Raxmonqulov U, 1990).

Abu Ali ibn Sino va Abu Rayhon Beruniylar davridan kovrak turkumlari vakillari F.foetida, F.foetidissima, F.kopetdagensis, F.kokanica, F.persika, F.zoongarica, F.sumbul, F.badrakema, F.diversivittata, F.kapsica, F.karatavika, F.karelini, F. gummoza, F.varia, F.kuhistanica ildizidan olingan elim(smola) qadimdan dorivor o'simliklar "Ushturg'oz", "Kovrak", "Sassiqlik kovrak", "Sumbul", "Spagen", "Galbanum", "Kinna" va boshqa nomlar bilan oddiy va murakkab dorilar sifatida qo'llanilgan.

Abu Ali ibn Sino o'simliklar smolasini me'da, buyrak, taloq, jigar kasalliklarini davolashda hamda ginekologik kasalliklarda qon oqishini to'xtatuvchi, ishtaha ochuvchi, siydik haydovchi, bo'g'inlarda og'riqlik qoldiruvchi dori sifatida foydalanilgan.

Kovrak turkumi turlari eramizning IV asrlaridan boshlab smola olish maqsadida ishlatila boshlaganligi tufayli u bir vaqtlar Shimoliy Afrikada keng tarqalgan bo'lsa, hozirda uning tabiiy zahiralari vahshiylarcha tonnalab smolani yig'ish oqibatida ko'pchilik hududlarda yo'qolib ketgan. Hozirgi paytda o'simlik faqat Eron, Afg'oniston va O'zbekistonda o'sadi.

Har xil antropogen ta'sirda Jizzax, Mirzacho'l, Qarshi va Sherobod cho'llarining o'zlashtirilishi oqibatida kovraklarning maydoni O'zbekiston hududida ham keskin kamaygan (Raxmonqulov U, 1999).

Hozirda kovraklarning ba'zi turlaridan estrogen xususiyatga ega bo'lgan panoferol, estroferol preparatlari tibbiyotga tadbiiq qilinmoqda (Kurmukov, Axmedxodjayeva, 1994).

F.foetida o'simligining kimyoviy tarkibini o'rganib, uning insonlarga zaharli ta'siri yo'qligini va o'simlik gormonal xususiyatga ega ekanligini aniqladi.

Shuningdek, Ferula L. turlari veterinariyada teri, ichak parazitlariga qarshi, hayvonlar bo'kib qolishining oldini olish maqsadida ishlatiladi. Keyingi tekshirishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, insonlarda (giyohvandlarda) smola narkotik effektini kesar ekan. Ferula L. ba'zi turlarining elimi ko'pchilik Sharq davlatlarida ovqatning ta'mini yaxshilovchi vosita sifatida qo'llaniladi. Ferula L. turlaridan

yana uchasi: F.kuhistanica, F.varia va F. sumbul xalq tabobatida sassiq kovrak kabi foydalaniladi.

Hozirgi paytda har yili F.foetida va F.kuhistanica ildizidan 200 tonnadan ortiq elim-smola Respublikamizning Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari hududlaridan eksport qilinmoqda. O'simlik ildizidan elim tayyorlash shu holda davom etaversa,uning zahiralari kamayib kerish xavfi mavjud. Chunki, bu osimlik monokarp bo'lib, u hayotining 7-8-yilida gullab urug'laydi. Hisoblab ko'raylik, har tup kovrak ildizidan 50-60 gramm elim olinsa, bir gektar maydonda o'rtacha 5 ming dona voyaga yetgan o'simlik uchrasa, unda bu maydondan 200-250 killogramm elim olish mumkin. Agar o'simlik qayta tiklanishi uchun uning yarmi qoldirilsa, gektaridan 100-120 gramm elim olish imkoniyati bo'ladi. Endi 200 tonna mahsulot olish uchun qancha maydondan foydalanishni hisoblab ko'ring.Muhim ahamiyatga ega bo'lgan kovrak turkumi turlarini asrab avaylash uchun tabiiy zahiralardan oqilona foydalanish va kamyob turlarini ekib o'stirishni tavsiya qilamiz.